XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 9-fevral VII-17-18-8-0-K/26 Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyatida 2026-yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i stavkalarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq Surxondaryo viloyatida 2026-yilda jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar hamda fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Soliq boshqarmasining 2025-yil 16-dekabrdagi 20-107308-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Abdullayev), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov)ga:

jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i stavkalari turar joylar uchun 5,9-14,5 ming so‘mgacha 2 koeffitsiyentgacha, noturar joylar uchun 11,8-28,4 ming so‘mgacha, 2 koeffitsiyentgacha indeksatsiya qilinishini qo‘llagan holda ijara stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan televideniye bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish hamda televideniye orqali ommaga taqdim etish;

shahar va tumanlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini 5 (besh) kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

har chorak yakunida jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i va undirilgan soliqlar to‘g‘risida xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot berib borish vazifalari yuklansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Зарa Сурхања” gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat, shahar va tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televideniye, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 9-fevraldagi
VII-17-18-8-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Soliq solish maqsadida 2026-yil qo‘llaniladigan ko‘chmas mulk ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun o‘rnatilayotgan minimal miqdorl to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/r	Hudud nomi	2026 yilda ijra bo‘yicha hisoblanishi kutilayotgan soliqlar					
		Turar joy obyektlari			Noturar joy obyektlari		
		1 m. kv turar joylar uchun minimal qiymat	Qo‘llash taklif etilayotgan koeffitsient	1 m. kv turar joylarning yakuniy narxi	1 m. kv noturar joylar uchun minimal qiymat	Qo‘llash taklif etilayotgan koeffitsient	1 m. kv noturar joylarning yakuniy narxi
1.	Termiz shahar	14 500,00	1	14 500,00	28 400,00	1	28 400,00
2.	Angor tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
3.	Oltinsoy tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
4.	Boysun tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
5.	Muzrabot tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
6.	Denov tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
7.	Jarqo‘rg‘on tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
8.	Qumqo‘rg‘on tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00

9.	Qiziriq tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
10.	Sariosiyo tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
11.	Termiz tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
12.	Sherobod tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
13.	Sho‘rchi tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
14.	Uzun tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00
15.	Bandixon tumani	5 900,00	1	5 900,00	11 800,00	1	11 800,00